

Jinoyat haqida xabar berish

- Jinoyat harakatiga guvoh bo'lgan yoki jabr ko'rsangiz 112 raqamiga xabar bersangiz zudlik bilan militsiya yordamidan foydalanishingiz mumkin.
- Xabar berayotganda, o'zingiz turgan joyni va vaziyatni aytib va xotirjamlik bilan qayerda va qanday qilib siz zarar ko'rganingiz, hujum qilgan odamning yuz ko'rinishi, undagi buyumlari, soni, qochib ketgan yo'nalishi va foydalangan transport vositasi va boshqalar to'g'risida guvohlik bering.
- Siz uyali telefon (video qo'ng'roq ham mumkin), oddiy telefon va jamoat telefoni yordamida 112 ga xabarni yuborishingiz mumkin, va jamoat telefonida favqulodda qo'ng'roqdan foydalanganda (qizil favqulodda qo'ng'roq tugmasi+112 ni bosib), siz qo'ng'roqni tekinga qilishingiz mumkin. Undan jinoyatlar to'g'risida xabar berishdan tashqari, boshqa favqulodda vaziyatlarda ham foydalansa bo'ladi.
- Chet ellik kishi 112 ga xabar berganida, xabar 3-tomonlama tarjima xizmati formatida (politsiya-tarjimon-xabar beruvchi) rasmiylashtiriladi.
- Agar telefon orqali qo'ng'roq qilish qiyin bo'lsa, siz '112 Emergency Report App' yoki 'matnli xabarlar' orqali xabar berishingiz mumkin.
- '112 favqulodda holat hisoboti' ilovasini Google Play Store dan yoki App Store dan yuklab olgandan so'ng foydalanish mumkin.
- Ko'ngilsiz jinoyat sodir bo'lgan joyda dalillarni ko'paytirish uchun militsiya xodimlari kelguncha o'z holida saqlab, militsiya xodimiga yordamlashishingiz kerak.

Ko'mak so'rash qo'ng'iroqlari

Jinoyat haqida xabar va shoshilinch bog'lanish	
Jinoyat haqida xabar (Militsiya boshqarmasi)	112
Maktabdagi zo'ravonlik bo'yicha xabar markazi (Militsiya boshqarmasi)	117
Yong'in, shoshilinch bemor, favqulodda qutqaruv xizmati (O't o'chirish xizmati)	119
Xakkerlik, spam, shaxsiy ma'lumotlarni ogirlash haqida xabar berish (KISA)	118
"Heparagi" markazi (Ayollar va oila vazirligi)	1899-3075
Bola yo'qolgan, uydan chiqib ketganda (Militsiya boshqarmasi)	182
Ayollarga shoshilinch maslahat berish xizmati (Ayollar va oila vazirligi)	1366
Danuri koll markazi (Ayollar va oila vazirligi)	1577-1366

Boshqa shikoyatlar	
Chet elliklarga umumiy ma'lumot markazi (Adliya vazirligi)	1345
Hukumat murojaat koll-markazi (Davlat boshqaruvi va xavfsizlik vazirligi)	110
Turistlar ma'lumot (Koreya turizm korporatsiyasi)	1330
Inson huquqi buzilishi, konsultatsiya (Inson huquqlarini himoya qilish qo'mitasi)	1331
Huquqiy maslahat (Koreya huquqiy yordam tashkiloti)	132
Bolalarni himoya qilish maxsus tashkiloti (Sog'liqni saqlash vazirligi)	129
O'smirlar online konsultatsiyasi (Ayollar va oila vazirligi)	1388

Chet ellik muhojirlarga yordam berish siyosati

- Militsiya Adliya vazirligi bilan birgalikda jabrlanuvchilarga ko'mak berish maqsadida va Koreyada yashayotgan chet ellik fuqarolarning inson huquqlarini himoya qilish maqsadida {Noqonuniy muhojirlar xabar berish tizimi}ni boshqarmoqda.
- Ushbu tizim {Noqonuniy muhojirlar majburiy xabar berish tizimi} noqonuniy muhojirlar jinoyat qurboniga aylansa va bu haqiqatni militsiyaga oshkor etsa, ushbu shaxsning ma'lumotlari immigratsiyadan sir tutiladi.
- Jinoyat turi quyidagicha :
 - (Jinoyat qonuni) odam o'ldirish, shikast yetkazish / tajovuz, qasddan odam o'ldirish, jasadni yashirish / tanga shikast yetkazish, hibsga olish, qamash, qo'rqitish, o'g'rilik / o'g'rilikni rejalashtirish, zo'rash / axloqsizlik, huquqbuzarlik, talonchilik / qurol bilan qo'rqitish, firibgarlik / tahdid, havf solish kabilar.
 - (Maxsus qonun) Zo'ravonlik harakatlari jazosi to'g'risidagi qonun, jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar jazosi bo'yicha maxsus qonun, yo'l-transport hodisalari bo'yicha maxsus qonun, fohishalarni sotish kabi harakatlarni jazolash to'g'risidagi qonun, ish xavfsizligi to'g'risidagi qonun (46-modda).
- Agar siz jabrlanuvchi bo'lsangiz, ikkilanmang, 112ga murojaat qilib, ko'mak olishingizni so'raymiz.
- Militsiya mahkamasiga tashrif buyurmay ham jinoyat (zarar) haqida xabar berish va arz qila olishliklari uchun chet elliklar bemalol kirib-chiqadigan Multimedaniyatli oilalarni qo'llabquvvatlash markazlari, nodavlat tashkiloti kabilar 'chet elliklar uchun yordam markazi' sifatida yuritilib kelinmoqda.

Foydalanish usuli

- Chet elliklarning jinoyatdan jabr ko'rishi(shikoyat) sodir bo'ladi
- Chet elliklar yordam markaziga xabar yoki maslahat olinadi
- Mahkamada ro'yxatdan o'tkaziladi va maslahat olinadi
- Mahkamada yordam ko'rsatiladi yoki tegishli organga xabar berilgach yordam ko'rsatiladi

- Chet elliklarga yordam markaziga borib, jinoyat haqida xabar berilsa yoki hayotiy qiyinchiliklar haqida maslahatga ariza berilsa, markaz xodimi murojaatni qabul qilib yaqin politsiya mahkamasining tashqi ishlar bo'yicha xodimiga yetkazadi. Qabul qilingan murojaat asosida militsiya mahka masining mas'ul bo'limi buni bevosita hal qiladi yoki tegishli organlarga xabar beradi.



Jinoyat haqida xabar berish yoki maslahat mazmuniga ko'ra yordam berish

- Zo'ravonlik-oiladagi zo'ravonlik-maktabdagi zo'ravonlikfiribgarlik (arz-da'vo) kabi jinoyat holatlar haqida xabar berilganda militsiya mahkamasining ma'sul bo'limida bevosita yordam ko'rsatiladi.
- O'lish haqini to'lashdagi kechikish, ishlab chiqarishdagi falokat, Koreyada bo'lish magomi bilan bog'liq va boshqa masalalar to'g'risidagi xabarlar Mahnat va Bandlik Vazirligi, Gender Tengligi va Oila Vazirligi, Adliya Vazirligi va boshqa tegishli idoralarga yetkaziladi. Bundan tashqari, fuqarolik arizasining mazmuniga qarab xabar beruvchi tegishli Elchixonaga yoki Konsulxonaga yuboriladi.

※ Chet elliklarga yordam markazidan foydalanish uchun yaqin militsiya mahkamalaridan birining tashqi ishlar bo'limiga murojaat qilish mumkin.

- Jinoyat (zarar)ning oldini olish yo'llarini o'rgatadi va haydovchilik guvohnomasini olish bo'limida tahsil olish imkonini beradi.
- I stiqlomat qiladigan chet elliklar xavfsizligi va ularning jamiyatga moslashishida yordam berish maqsadida
 - Multi-madaniyatli oilalarni qo'llab-quvvatlash markazi, ish joyi, nodavlat tashkilot(NGO) kabilar chet elliklar to'plangan joyga bevosita boradi, nikoh migrant ayollar, chet ellik ishchi, chet ellik talaba kabilar hususiyatlarga ko'ra tez-tez sodir bo'ladigan jinoyat misollari va ehtiyot choralar kabilar haqida batafsil ma'lumot berib, qiyinchiliklar bo'yicha maslahat beruvchi 'O'zi topib boradigan ta'lim xizmati'
 - 'Chet elliklar uchun haydovchilik guvohnomasini olish bo'limi' da iqtidorli mutahassis o'qituvchilar bepul ta'lim ko'rsatadi va bu ta'lim asosida imtihon topshirish huquqiga ega bo'ladi. (3 xil tilda kitoblar beriladi)

Haydovchilik guvohnomasi imtihoni bo'yicha ma'lumot

- Yo'l-transport korporatsiyasi haydovchilik guvohnomasi uchun test markazi www.safedriving.or.kr, 1577-1120
- Imtihon 3 turli tilda topshirilishi mumkin (ingliz, xitoy va vyetnam)

※ Jinoyat oldini olish darsi va haydovchilik kurs i darslaridan foydalanish uchun yaqin militsiya mahkamalaridan birining tashqi ishlar bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin.

- Koreys tilini yaxshi bilmaydigan chet elliklar uchun jinoyat(zarar) haqida xabar berish va arz qilishda tarjimonlik xizmati yo'lga qo'yilgan

Tarjimonlik xizmati haqida

- Turistik tarjima xizmati 1330 koreys, ingliz, yapon, xitoy va boshqa 8 xil tilda - koreys, ingliz, yapon, xitoy va boshqa (24 soat) - rus, vyetnam, malaziya va indonesiya (08:00~19:00)
- Danuri koll markazi 1577-1366 (24 soat) 13 til, shu jumladan vyetnam, mo'g'il va kambogja va boshqa tillar
- Chet elliklarga umumiy ma'lumot markazi 1345, 1661-2025 20 til, shu jumladan tay, indoneziya va urdu va boshqa tillar - koreys, ingliz, xitoy (09:00~22:00) - vjetnam kabi 17ta til(09:00~18:00)
- BBB Koreya 1588-5644 (24 soat) turk, polyak, hind, malay, va boshqa 20 xil tilda

우즈베크어 O'zbek tili
www.police.go.kr



Chet elliklar uchun jinoyatning oldini olish yo'riqnomasi

Bilmasdan jinoyat qilib qo'yishning turlari

- Zo'ravonlik, tan jarohat yetkazish, qo'rqitish, uyiga bostirib kirish, mol-mulkiga zarar yetkazish, g'ayriqonuniy qamab qo'yish, majburlash, do'q-po'pisa qilish, ustidan kulish kabi jinoyatlarni amalga oshirish maqsadida guruh to'plash, unga qo'shilish yoki faoliyat yuritish yanada qattiq jazolanadi.
- Pichoq, temir chiviq, temir arra kabi inson hayotiga havfli va jismoniy shikast yetkazuvchi o'tkir qurollarni noqonuniy olib yurish mumkin emas.
- Siz pul tikib qimor o'ynamasligingiz kerak va hatto qimor o'yinlari uchun joy bersangiz ham qimor o'yinlarida ishtirok etgan kabi og'ir jazoga tortilasiz.
- Yo'lga qo'yib ketilgan velosiped kabi egasiz ko'rinadigan narsalar ham o'z hoxishicha olib ketilganda ham o'g'irlik yoki bironing mulkiga ega chiqish jinoyati hisoblanadi.
- Moliya organlaridan foydalanmay o'zaro kelishuv orqali chet elga pul o'tkazish harakati ham javobgarlikka tortiladi.
- Giyohvand moddalar bilan bog'liq harakatlar, masalan, ularni ishlab chiqarish, kotrabanda qilish, ularga egalik qilish, iste'mol qilish jiddiy jazolanadi va siz mamlakatdan majburiy tarzda chiqarib yuborilasiz
- Milliy Siyosat Agentligi giyohvand moddalarni noqonuniy yetkazib berish, chet elliklar tomonidan giyohvand moddalarni iste'mol qilish va giyohvand moddalarni Internet (qora tarmoq), ijtimoiy tarmoqlar va hokazolarda orqali foydalanish/sotib olish yoki sotish kabi giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi qattiq va jadal kurash olib bormorda.
- 17 yoshdan yuqori chet elliklar doimo o'zi bilan pasport, chet ellik ID kartasini olib yurishlari kerak va bu qoida buzilganda jarima (1 mln vongacha) solinadi.
- A garda boshqa kishining shaxsni tasdiqlovchi xujjatidan foydalansangiz yoki o'z shaxsingizni yashirishga harakat qilsangiz yolg'on ma'lumot orqali davlat xodimi ishiga to'siqlik qilish hisoblanib, bu alohida jazolanadi.
- Noqonuniy suratga olish va jinsiy ekspluatatsiya materiallarini yuborish kabi harakatlar qattiq jazolanadi.
- Jismoniy aloqa bo'lmasa ham, Internet va uyali telefon orqali jinsiy tahqirlash va nafratlanishni keltirib chiqaradigan so'zlar va fotosuratlarini yuborish, boshqalar tanasining qismlarini ularning rozilgisiz suratga olish va tarqatish va noqonuniy suratga olingan materiallarni saqlash, sotib olish, va tomosha qilish

- Mashina yoki mototsikl boshqarganda, haydovchilik guvohnomasiz kabi quyidagi hollarda qattiq jazolanadi

- Transport vositasi haydovchilik guvohnomasiz boshqarilsa:

▶ Ko'zda tutilgan jazo choralari ① Avtomobil=> Yol Harakati Qonuni 152 Moddasi 1 Bandi (1 yildan kam muddatga qamoq jazosi yoki 3 million Vondan kam miqdorda jarima)
② Mototsikl=> Yol Harakati Qonuni 154 Moddasi 2 Bandi (300 000 Vondan kam miqdorda jarima)

- Transport vositasini mast holda boshqarish:

Qondagi alkogol miqdori	Jazo	Ma'muriy qaror
0.03% ~ 0.08%	1 yildan kam muddatga qamoqqa olish yoki 5 million Vondan kam miqdorda jarima	Haydovchilik guvohnomasi amal qilishi to'xtatiladi
0.08%~0.20%	1~2 yil muddatga qamoqqa olish yoki 5~10 million Von miqdorda jarima	Haydovchilik guvohnomasi qaytarib olinadi
0.2% dan ortiq	2~5 yil muddatga qamoqqa olish yoki 10~20 million Von miqdorda jarima	Haydovchilik guvohnomasi qaytarib olinadi
Transport vositasini mast holda 2 marta dan ortiq boshqarish	2~5 yil muddatga qamoqqa olish yoki 10~20 million Von miqdorda jarima	Haydovchilik guvohnomasi qaytarib olinadi

▶ Ko'zda tutilgan jazo choralari Yol Harakati Qonuni 148-Moddasi

- Agar egalik huquqi qonunan o'lnkazilmagan avtomobil boshqarilsa ("Daepocha" deb nomlanadigan holat)

▶ Ko'zda tutilgan jazo choralari Yol Harakati Qonuni 81-7-Moddasi 2-Bandi (1 yildan kam muddatga qamoqqa olish yoki 19 million Vondan kam miqdorda jarima)

- Fundamental tartib-intizomga bo'ysunmaslik uchun ham jazo yoki jarima belgilanishi mumkinligiga e'tibor bering.

- Tamaki qoldig'i, saqich, axlat kabilarni e'tiborsizlik bilan duch kelgan joyga tashlash mumkin emas.
- Jamoat joylarida e'tiborsizlik bilan tuflash yoki ruhsat etilmagan joyda tamaki iste'mol qilish mumkin emas.
- Mototsikl haydovchisi va unga hamroh kishi havfsizlik kaskasini taqishi kerak va yo'lni kesib o'tganda yo'lovchilar ko'prikgchasi yoki piyodalar o'tadigan yo'ldan o'tish lozim.

Kundalik hayotiy jinoyatlar oldini olish va uni bartaraf etish choralari

- Firi bgarlik (noqonuniy piramida savdo, telefon orqali moliyaviy firi bgarlik <Voice Phishing>, internetdagi firi bgarlik kabi)

- noqonuniy piramida : Odatiy ulgurji va chakana tovar aylanishi bosqichi orqali emas, balki xaridor bevosita sotuvchi sifatida tovarni sotishi amalga oshiriladi va quyidagi holatlarda tashkilotga a'zo bo'lish yoki sotuvchi bo'lish taklif etilganda shartsiz rad qilinishi lozim.

- qisqa muddat ichida yuqori daromadga ega bo'lishni va'da qilib sar moyadorlarni yig'ishi, sotib olish, majburiy xarid, kredit olishga unda ganda
- to'liqsiz ish haftasida ishlash, qo'shimcha biznes va ishga kirishni va'da qilib sotuvchi sifatida ro'yxatga olinib, aslida esa tovarni majburlab xarid qildirganda
- tovarni yuqori sifatli deb yolg'on ma'lumot berish va bo'rttirish orqali qimmatga sotganda

▶ Qayd etilgan qonuniy tashkilotarni tekshirish va ma'lumot

- A dolatli savdo-sotiq qo'mitasi www.ftc.go.kr, 044-200-4010
- To'g'ridan to'g'ri savdoni amalga oshiruvchi birlashma www.macco.or.kr, 02-566-1202
- K o'rya maxsus savdoni amalga oshiruvchi birlashma www.kossa.or.kr, 02-2058-0831

- telefon orqali moliyaviy firi bgarlik : Agar telefon orqali davlat idorasi yoki moliya muassasasi nomidan hisob raqamidan pul o'tkazishni talab qilish yoki naqd pulni topshirish yoki shaxsiy ma'lumotlarni, masalan, hisob raqami, kredit karta va rezidentni ro'yxatdan o'tkazish raqami va boshqalarni talab qilsalar, bunday telefon qo'ng'irog'iga javob bermang.
※ Naqd pulni yechib olish va firi bgarlik gurihlariga bo'ysinuvchi callmarkazlarida gi telemarketchi va shu kabi boshqa rollar firi bgarlik bilan shug'ullanuvchi jiniyatchi kabi qattiq jazolanadi

▶ Ovozli fishing holatlari

- Oila a'zosi (bola) telefon qo'ng'irog'iga javob bera olmaydigan vaziyatni yaratib, odam o'g'irlash tufayli naqd pul to'laqshni talab qilish.
- Jinoyatga aloqadorligi va shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishni sabab qilib ko'rsatish orqali o'zini prokuror yoki politsiyachisifatida ko'rsatib, naqd pul to'lashni talab qilish
- O'zini moliya instituti sifatida ko'rsatib, kredit berishni va'da qilib, mavjud kredit va komissiya yig'irlari va boshqalarni qaytarish bilan pul to'lashni talab qilish.
- To'lovni kechiktirish bahonasida o'zini kredit karta yoki telekommunikatsiya kompaniyasi qilib ko'rsatib naqd pul to'lashni talab qilish.

- Jismoniy shaxlar o'rtasida Internet orqali tranzaksiyalarni amalga oshirishda siz tranzaksiyadan oldin xavfsiz tranzaksiya saytidan foydalanishingiz yoki boshqa tomonning shaxsiy ma'lumotlarini tasdiqlashingiz kerak (telefon raqami, va hisob raqami va boshqalar).

- Siz interent firi bgarlikdan ko'rilgan zararlar to'g'risidagi hisobot tarixini qidirishingiz va zararlar haqida Milliy Siyosat Agentligining veb-saiti(www.police.go.kr) yoki kiber politsiya veb-saiti (mobile app.) orqali xabar berishingiz mumkin.

- Oiladagi zo'ravonlik · Uchrashuv (tanishuv) ostidagi zo'ravonlik

- Oiladagi zo'ravonlik-tanishuv ostida zo'ravonliklar sodir bo'lsa, ikkilanmasdan yaqin atrofdagi militsiya hodimlari (qarindosh, qo'shni, do'stlar)ga xabar bering va ulardan ko'mak oling.

※ Fotosurat, tibb iy ma'lumotnom a kabi zo'rov onlikni isb otlashga yordam dalil va ashyolarni yig'ing, ayollar maslahatxonalari / ayollar boshpana bilan ta'minlash idoralari jumladan, ayollarga favqulodda yordam berish maslahat xizmati telefoni (avqulodda yordam berish maslahat 1366 / Tanuri chaqiriq markazi 1577-1366 ga murojaat qiling.)

- Bolaning bedarak ketishi va o'g'irlanishi

- Bolaga begona shaxs o'zini tanitadigandek qilib ko'rsatsa hech qachon orqasidan bormay, zudlik bilan qochishi va mabodo zo'rlab olib ketmoqchi bo'lsa, baqirib atrofda gildardan yordam so'rashi kerakligini o'rgating.
- Bolaga o'z ismi, yoshi, manzili, telefon raqami, ota-onasining ismi kabilarni esda tutishni o'rgating. Va bola tashqariga chiqqanda kim bilan qayerga borayotganligini hamda qanday kiyimda chiqib ketganligini yodda tuting.

- Maktabdagi zo'ravonlik

- Maktabdagi zo'ravonlik deganda maktab hududida o'quvchiga nisbatan kuch ishlatilib qo'rqitish, ustidan kulish natijasida tan-jarohat hamda ruhiy shikast, mulkiga zarar yetkazadigan harakatlar tushuniladi.
- Odamlar kam qatnaydigan xilvat ko'chalarda yolg'iz yurmaslik, zarar yetkazuvchi tomonidan qimmatbaho buyumlar olib qo'yilish kabi zo'ravonlik harakati sodir etilganda albatta, militsiya organlariga xabar berish singari faol harakat qilish lozim.

- Jinsiy huquqbuzarlik (Zo'rqlash, tahdid bilan jinsiy teginish, noqonuniy tasvirga olish, fohishalik va boshqalar)

- Jinsiy zo'ravonlikka uchraganda yuvinmasdan kiygan ichki kiyim va boshqa kiyimlarni o'sha holicha saqlab 112ga zudlik bilan xabar bering.
- Jinoyatchi haqida xotirangizda qolgan barcha ma'lumot (jinoyatchining ko'rinishi, o'ziga hos xususiyati) larni eslab qolish uchun yozib qo'ying.
- Atrofigizda jinsiy jinoyat jabrlanuvchisini ko'rsangiz uning gaplarini eshitib 1577-1366ga qo'ng'iroq qilib maslahat olishida yordam bering.

- SMS-xabar orqali moliyaviy firi bgarlik (Smishing)

- Bepul kupon' kabi mazmundagi SMS-xabar da ko'rsatilgan internet adresi ochilsa → virusli kod telefonga o'matilib → jabrlanuvchiga bildirmay kichik miqdorda pul yechib olish, shaxsiy va moliyaviy ma'lumot kabilarni yashirin o'g'irlash
- Yaqin kishingizdan kelgan SMS-xabar bo'lsa ham, undagi internet adresni telefon qilib tekshirish, mobil telefonga noma'lum dastur avtomatik ravish - da o'rnatilishidan saqlab, himoya tizimini nazorat qilish orqali zararni oldini olamiz.

- O'g'irlik (egasiz uylarni o'marish, kissavurlik, bosqinchilik kabi)

- Uydan uzoq vaqtga chiqib ketayotganda, jumladan ta'til va hokazolarga ketayotganda, muntazam keladigan pochmani olib kelmasliklarining va yuvingiz oldida yig'ilib qolmasligining choralarini oldindan ko'ring. Qimmatbaho buyumlarni, shu jumladan zargarlik buyumlari va naqd pullarni bankning seyfidan saqlash xavfsixdir.
- Odamlar ko'p toplanadigan terminal, bozor kabi gavjum joylarda e'ti borsizlikdan foydalanib qo'lingizdagi narsani olib qochishi mumkinligi ini e'tiborga olib ehtiyot bo'lishingiz kerak.
- Moliyaviy organlarda katta miqdordagi naqd pulni olayotganingizda militsiyadan yordam so'rang.